

Ne'matullo Zamonov

JINOYAT PROTSESSUAL HUQUQI

(Abituriyentlar uchun)

Telegram manzil:

@IDEALHUQUQ

Ushbu qo'llanma jinoyat-protsessual
huquqidan o'quv dasturi va amaldagi
qonunchilik bazasi (lex.uz) asosida
abituriyentlar uchun maxsus
tayyorlandi.

Jinoyat protsessual huquqi

“Protsess” so‘zi lotincha “procedere” – olg‘a siljish; “processus” – harakat, rivojlanayotgan, ishlab chiqarish ma’nolarini anglatadi.

◎ Oddiy qilib aytganda, “protsess” – jarayon deganidir.

Jinoyat-protsessual huquqi – jinoyat ishlari bo'yicha surishtiruv, dastlabki tergov va sud muhokamasini o'tkazish bila bog'liq faoliyatni tartibga soluvchi tartib-qoida va normalarning qonunda mustahkamlangan tizimini, ya'ni jinoyat ishi yuritushi vazifalari amalga oshiriladigan zarur huquqiy tartib-taomillarni ifodalovchi mustaqil huquq sohasidir.

Jinoyat protsessual huquqi quyidagi jarayonlardagi organlar faoliyatini tartibga soladi:

Tergovga
qadar
tekshiruv

Surishtiruv/
dastlabki
tergov

Sud
muhokamasi

JPK, 2-modda. Jinoyat-protsessual qonunchiligining vazifalari

Jinoyat-protsessual qonunchiligining vazifalari jinoyatlarni tez va to‘la ochishdan (1), jinoyat sodir etgan har bir shaxsga adolatli jazo berilishi (2) hamda aybi bo‘lmagan hech bir shaxs javobgarlikka tortilmasligi va hukm qilinmasligi (3) uchun aybdorlarni fosh etishdan hamda qonunning to‘g‘ri tatbiq etilishini ta’minlashdan (4) iboratdir.

Jinoyat ishlarini yuritishning jinoyat-protsessual qonunchilikda belgilangan tartibi qonuniylikni mustahkamlashga, jinoyatlarning oldini olishga, shaxs, davlat va jamiyat manfaatlarini himoya etishga yordam qilmog‘i lozim.

Manba: lex.uz

TAHLIL:

Jinoyat-protsessual qonunchiligining vazifalari:

- 1) Jinoyatlarni **tez va to‘la** ochish;
- 2) jinoyat sodir etgan har bir shaxsga **adolatli jazo** berish;
- 3) aybi bo‘lmagan hech bir shaxs javobgarlikka tortilmasligi va hukm qilinmasligi uchun **aybdorlarni fosh etish**;
- 4) qonunning **to‘g‘ri tatbiq etilishini** ta’minlash.

KALIT SO‘ZLAR:

Tez, to‘la
ochish

Adolatli jazo

Fosh etish

Qonunni
to‘g‘ri tatbiq
etilishi

Jinoyat protsessi ishtirokchilari deb, jinoyat sudlov ishlarini yuritishda qonun bilan belgilangan huquq va majburiyatlarga ega bo'lgan davlat organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolarga aytildi.

Amaldagi jinoyat protsessual qonunchiligiga ko'ra jinoyat sudlov ishlarini yuritish ishtirokchilarini quyidagicha tasniflanadi:

- 1) Jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan **davlat organlari** va **mansabdor shaxslar**;
- 2) Jinoyat protsessida **o'z manfaatlarini** himoya qiladigan shaxslar;
- 3) Jinoyat protsessida **o'zgalar manfaatlarini** himoya qiladigan shaxslar;
- 4) Jinoyat ishini yuritishda ishtirok etuvchi **jamoat birlashmalari**, jamoalar va ularning vakillari;
- 5) Jinoyat protsessida ishtirok etuvchi **boshqqa shaxslar**.

JINOYAT PROTSESSI ISHTIROKCHILARI

Jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlari va mansabdon shaxslar	Jinoyat protsessida o'z manfaatlarini himoya qiladigan shaxslar	Jinoyat protsessida o'zgalar manfaatlarini himoya qiladigan shaxslar	Jinoyat ishini yuritishda ishtirok etuvchi jamoat birlashmalar, jamoalar va ularning vakillari	Jinoyat protsessida ishtirok etuvchi boshqa shaxslar
<p>1) Sud;</p> <p>2) Sudya;</p> <p>3) Xalq maslahatchilari;</p> <p>4) Sud majlisi kotibi;</p> <p>5) Tergov sudyasi;</p> <p>6) Prokuror;</p> <p>7) Tergovchi;</p> <p>8) Surishtiruvchi;</p> <p>9) Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar.</p> <p>(davomi ham bor edi, biroq ularni yodlash shart emas)</p>	<p>1) Ayblanuvchi;</p> <p>2) Guman qilinuvchi;</p> <p>3) Jabrlanuvchi;</p> <p>4) Fuqaroviylar;</p> <p>5) Fuqaroviylar javobgar.</p>	<p>1) himoyachi;</p> <p>2) Guman qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining, jabrlanuvchining qonuniy vakillari;</p> <p>3) Jabrlanuvchining, fuqaroviylar; da'vogarning va fuqaroviylar javobgarning vakillari.</p>	<p>1) Jamoat ayblovlachisi;</p> <p>2) Jamoat himoyachilari.</p>	<p>1) Guvoh;</p> <p>2) Ekspert;</p> <p>3) Mutaxassis;</p> <p>4) Tarjimon;</p> <p>5) Xolislar.</p>

Jinoyat protsessida ishtirok etishga monelik qiladigan holatlar.**JPK, 76-modda:**

Quyidagi hollarda sudya, shuningdek xalq maslahatchisi, prokuror, tergovchi, surishtiruvchi tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdar shaxsi, sud majlisining kotibi jinoyat ishini yuritishda ishtirok etishga haqli emas va uni rad qilish lozim, basharti:

- 1) u **shu ish bo'yicha** jabrlanuvchi, fuqaroviylar da'vogar, fuqaroviylar javobgar, ekspert, mutaxassis, tarjimon, xolis, guvoh, himoyachi sifatida, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining qonuniylari vakili yoki jabrlanuvchining, fuqaroviylar da'vogarning, fuqaroviylar javobgarning vakili sifatida ishtirok etayotgan yoki **ilgari ishtirok etgan bo'lsa**;
- 2) u ushbu ishni yuritish uchun mas'ul bo'lgan biror mansabdar shaxsning yoki ushbu modda birinchi qismining 1-bandida ko'rsatilgan o'zga shaxslarning **qarindoshi** bo'lsa;
- 3) uning **xolisligiga va beg'arazligiga** shubha tug'diradigan boshqa holatlar mavjud bo'lsa.

Sudya ilgari shu ishni yuritishda tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdar shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud majlisining kotibi sifatida ishtirok etgan bo'lsa, o'sha ishni kelgusida ko'rishda qatnasha olmaydi.

Birinchi, apellyatsiya, kassatsiya va taftish instansiysi sudida ishni ko'rishda ishtirok etgan sudya o'z ishtirokida chiqarilgan hukm, ajrim bekor qilinganidan keyin o'sha ishni ko'rishda ishtirok eta olmaydi.

Jinoyat ishini **birinchi instansiya sudida** ko'rishda ishtirok etgan sudya shu jinoyat ishini apellyatsiya, kassatsiya va taftish instansiysi sudida ko'rishda ishtirok eta olmaydi.

Jinoyat ishini **apellyatsiya instansiysi** sudida ko'rishda ishtirok etgan sudya shu jinoyat ishini birinchi instansiya yoki taftish instansiysi sudida ko'rishda ishtirok eta olmaydi.

Jinoyat ishini **kassatsiya instansiysi** sudida ko'rishda ishtirok etgan sudya shu jinoyat ishini birinchi instansiya yoki taftish instansiysi sudida ko'rishda ishtirok etishi mumkin emas.

Jinoyat ishini **taftish instansiysi** sudida ko'rishda ishtirok etgan sudya ushbu jinoyat ishini birinchi instansiya, apellyatsiya yoki kassatsiya instansiysi sudida ko'rishda, shuningdek ishni yuqori instansiya sudida taftish tartibida qayta ko'rishda ishtirok etishi mumkin emas.

★ Surishtiruvchining, tergovchining, shuningdek **sud majlisi** **kotibining** o'z protsessual majburiyatlarini bajarishi ularning shu ish bo'yicha tegishinchcha surishtiruvni, dastlabki tergovni yuritishda takroran ishtirok etishi, shuningdek sud majlisi bayonnomasini yuritishi uchun monelik qilmaydi.

SINTEZ METODI/XULOSA:

- ◆ Sudya bir ishni oldin ko'rib chiqqan bo'lsa, endi qayta ko'rib chiqolmaydi.
- ◆ Surishtiruvchi, tergovchi, sud majlisi kotibi esa shu ishda takroran ishtirok etishi mumkin (agar o'z funksiyasi doirasida bo'lsa).

JPK, 81-modda. Dalillarning turlari

Ijtimoiy xavfli qilmishning yuz bergan-bermaganligini, shu qilmishni sodir etgan shaxsnинг aybli-aybsizligini va ishni to‘g‘ri hal qilish uchun ahamiyatga molik boshqa holatlarni surishtiruvchining, tergovchining va sudning qonunda belgilangan tartibda aniqlashiga asos bo‘ladigan har qanday **faktik ma'lumotlar** jinoyat ishi bo'yicha dalil hisoblanadi.

Bu ma'lumotlar guvohning, jabrlanuvchining, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining ko‘rsatuvlari, ekspertning xulosasi, ashyoviy, yozma va raqamli dalillar, ovozli yozuvlar, videoyozuvlar, kinotasvir va fotosuratlardan iborat materiallar, tergov va sud harakatlarining bayonnomalari va boshqa hujjatlar bilan aniqlanadi.

Agar **tezkor-qidiruv tadbirlarining natijalari** faqat qonun talablariga muvofiq olingan bo‘lsa (1), ushbu Kodeks normalariga muvofiq tekshirilgan va baholanganidan keyin hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining yoki tezkor-qidiruv tadbirida ishtirok etgan boshqa shaxslarning harakatlariga bog‘liq bo‘lmagan holda shaxsda jinoyat sodir etish uchun shakllangan qasd mavjud bo‘lganligidan dalolat bersa (2), ushbu natijalar dalil sifatida tan olinishi mumkin.

Matnni hazm qilib yuborishga tayyormisiz? :) Unda let's go... .

“PROGRAMMALASH” METODI:

PROMT: DEMAK, DALIL NIMA EKAN?

RESPONSE: U faktik ma'lumot. Bu ma'lumotlar jinoyat yuz bergan-bermaganini, shaxsnинг aybdor-aybsizligi va boshqa holatlarni ochishga asos bo‘ladi. Masalan, barmoq izi faktik ma'lumot bo‘lib, dalil hisoblanadi. U orqali buyumni kim o‘g‘rilagani aniqlanishi mumkin.

PROMT: TEZKOR-QIDIRUV TADBIRLARI NATIJALARI QACHON DALIL HISOBLANADI?

RESPONSE: Qachonki:

- 1) tezkor-qidiruv natijalari qonungan muvofiq ravishda olingan bo‘lsa;
- 2) jinoyat sodir qilishga shaxsda haqiqatan ham qasd mavjudligi ayon bo‘lsa.

JKP, 85-modda. Isbot qilish

Isbot qilish ishni qonuniy, asoslangan va adolatli hal qilish uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlar to'g'risidagi haqiqatni aniqlash maqsadida dalillarni to'plash, tekshirish va baholashdan iboratdir.

JKP, 88-modda. Isbot qilish jarayonida fuqarolar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquq va qonuniy manfaatlarini qo'riqlash

Dalillarni to'plash, tekshirish va baholash jarayonida fuqarolarning, shuningdek korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini qo'riqlash ta'minlanishi kerak.

Isbot qilishda quyidagilar taqiqlanadi:

- 1) shaxslarning **hayoti va sog'lig'i uchun xavfli** bo'lgan yoki ularning sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi xatti-harakatlar sodir etish;
- 2) zo'rlik, po'pisa qilish, aldash va **qonunga xilof** boshqa yo'llar bilan ko'rsatuv, tushuntirish, xulosalar olishga, eksperimental harakatlarni bajarishga, hujjatlar yoki buyumlar tayyorlanishiga va berilishiga erishish;
- 3) **tungi vaqtida**, ya'ni kech soat 22-00 dan ertalab soat 6-00 gacha tergov harakatlari olib borish. Tayyorlanayotgan yoki sodir etilayotgan jinoyatning oldini olish, jinoyat izi yo'qolishiga yoki gumon qilinuvchining qochib ketishiga yo'l qo'ymaslik, eksperiment jarayonida tekshirilayotgan hodisaning holatini qaytadan tiklash zarurati bo'lgan hollar bundan mustasno.
- 4) shaxsni g'ayriqonuniy harakatlar sodir etishga **undash** va bunday undash oqibatida sodir etilgan jinoyat uchun uni ayblash;
- 5) shaxsni jinoyat ishiga **gumon qilinuvchi** yoki **ayblanuvchi** sifatida jalb qilish uchun asoslar mavjud bo'lgan taqdirda, uni **guvoh tariqasida** so'roq qilish, bundan ekspertiza yoki taftish o'tkazish talab etiladigan hollar mustasno;
- 6) shaxsga uning protsessual huquqlari tushuntirilguniga qadar undan biron-bir yozma yoki og'zaki **ko'rsatuvlar olish**;
- 7) ushlangan gumon qilinuvchining yoki ayblanuvchining **yaqin qarindoshlarini** protsess ishtirokchisi sifatida jalb qilish uchun asoslar mavjud bo'lmanan taqdirda, ularni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga chaqirish va so'roq qilish;
- 8) mazmunan ko'rib chiqish uchun sudga yuborilgan jinoyat ishi doirasida protsess ishtirokchilarini surishtiruv va dastlabki tergov organlari xodimlari

tomonidan **huquqni muhofaza qiluvchi organlarga chaqirish** va (yoki) so‘roq qilish, bundan ular bilan bog‘liq bo‘lgan alohida ish yurituvga ajratilgan jinoyat ishi yoki sudning yozma topshirig‘i mavjud bo‘lgan hollar mustasno.

Tergov yoki sud harakatlari bilan bog‘liq ishlarni bajarayotganda, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, suda va ishda mutaxassis yoki ekspert sifatida ishtirok etayotgan shifokorlardan boshqa shaxslarning o‘zga jinsdagi shaxsni yalang‘och qilib yechintirish chog‘ida hozir bo‘lishlari taqiqlanadi.

Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, suda tergov va sud muhokamasi jarayonida gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, jabrlanuvchi va boshqalarning shaxsiy hayotiga doir aniqlangan ma’lumotlarni oshkor qilmaslik chora-tadbirlarini ko‘rishi shart. Buning uchun shunday ma’lumotlar aniqlanishi mumkin bo‘lgan tergov yoki sud harakatlari olib borilayotganda ishtirok etadigan shaxslar doirasi cheklanadi, ishtirokchilar esa ularni oshkor qilganlik uchun javobgarlik to‘g‘risida ogohlantiriladi.

★ Tergov yoki sud harakatlari jarayonida olib qo‘yiladigan narsalar, hujjatlar va elektron ma’lumotlar tegishli **bayonomalarda** aniq ko‘rsatilishi kerak, bunda narsaning yoki hujjatning yoxud elektron ma’lumotlarning egasiga **bayonnomanusxasi** yoki uning ko‘chirmasi topshirilib, **tilxat** olinadi.

Ishga aloqasi bo‘lmagan narsalar, hujjatlar va elektron ma’lumotlar qonuniy egasiga darhol qaytarilishi kerak. Bunda, agar ishga taalluqli bo‘lmagan dalillar tergov organining va (yoki) sudning tasarrufida qolgan bo‘lsa, ular qayta tiklanmaydigan tarzda yo‘q qilinishi lozim.

Fuqarolar saqlashi taqiqlangan narsalar, hujjatlar va elektron ma’lumotlar yo‘q qilinishi yoxud ularni saqlashga xamda **tasarruf etishga vakolatli bo‘lgan muassasalarga** yoki tashkilotlarga berilishi lozim.

96-modda. So‘roq qilish joyi

Surishtiruvchi yoki tergovchi guvohni, jabrlanuvchini, gumon qilinuvchini va ayblanuvchini surishtiruv, **dastlabki tergov o‘tkaziladigan joyda** (1) yoki so‘roq qilinuvchi **qayerda bo‘lsa, o‘sha joyda** (2), sud esa **sud muhokamasi yuritilayotgan joyda** (3) so‘roq qiladi.

DEMAK:

So‘roq quyidagi joylarda o‘tkazilishi mumkin:

- 1) dastlabki tergov o‘tkazilayotgan joyda;
- 2) so‘roq qilunuvchi turgan joyda;
- 3) sud bo‘layotgan joyda.

98-modda. So‘roq qilinuvchining shaxsini aniqlash

Surishtiruvchi, tergovchi va sud so‘roq qilish oldidan so‘roq qilinuvchidan uning familiyasi, ismi va otasining ismini, tug‘ilgan vaqtini (yili, oyli, kuni) va tug‘ilgan joyini, yashash joyi va ish joyini, mansabi, mashg‘ulot turi, ma’lumoti, oilaviy ahvolini, sudlanganligi yoki sudlanmaganligini aniqlashi hamda bu ma’lumotlarni jinoyat ishidagi yoki so‘roq qilinuvchining shaxsiy hujjatlaridagi ma’lumotlar bilan solishtirib ko‘rishi yoxud so‘roq qilinuvchi o‘zini kim deb tanishtirgan bo‘lsa, aynan o‘sha shaxs ekanligiga boshqa yo‘llar bilan ishonch hosil qilishi lozim.

99-modda. So‘roq qilinuvchining qaysi tilda ko‘rsatuv bera olishini aniqlash

So‘roq qilinuvchi ish yuritilayotgan tilni biladimi, u qaysi tilda ko‘rsatuv bera olishi mumkin, degan savollar tug‘ilib qolsa, bu masala aniqlanishi lozim. Ushbu Kodeksning 71-moddasida nazarda tutilgan hollarda tarjimon chaqiriladi va u kelguncha so‘roq qilish to‘xtatib turiladi.

100-modda. Huquq va majburiyatlarni tushuntirish

So‘roq qilinuvchining shaxsi aniqlangandan keyin unga ushbu Kodeksda nazarda tutilgan huquq va majburiyatları tushuntiriladi. Bu huquq va majburiyatlar tushuntirilganligi **so‘roq bayonnomasi** yoki **sud majlisi bayonnomasida** qayd etiladi.

So'roqning davom etish vaqtি

107-modda. So'roqning davom etish vaqtি

So'roqning umumiy davom etish vaqtি bir kunda **sakkiz soatdan** oshmasligi lozim. Dam olish va ovqatlanish uchun beriladigan **bir soat** tanaffus bu hisobga kirmaydi.

553-modda. Voyaga yetmagan gumon qilinuvchini va ayblanuvchini so'roq qilish

Voyaga yetmagan gumon qilinuvchini va ayblanuvchini so'roq qilish himoyachi, qonuniy vakil ishtirokida amalga oshiriladi.

Himoyachi va qonuniy vakil gumon qilinuvchiga va ayblanuvchiga savollar berishga haqli. So'roq yakunlangach, himoyachi va qonuniy vakil bayonnomma bilan tanishishga va u haqda o'z mulohazalarini bildirishga haqli.

Voyaga yetmagan **gumon qilinuvchini, ayblanuvchini** so'roq qilishning umumiy davomiyligi kun davomida dam olish va ovqatlanish uchun bir soatlik tanaffusni hisobga olmaganda **olti soatdan** oshmasligi kerak.

121-modda. Voyaga yetmagan guvoh yoki jabrlanuvchini so'roq qilishning o'ziga xos jihatlari

....

Voyaga yetmagan **guvohni yoki jabrlanuvchini** so'roq qilishning umumiy davom etish vaqtি kun davomida dam olish va ovqatlanish uchun bir soatlik tanaffusni hisobga olmaganda **to'rt soatdan** oshmasligi kerak.

SINTEZ METODI/XULOSA:

SO'ROQ DAVOMIYLIK	
• Umumiy davomiyligи	8 SOAT
• Voyaga yetmagan gumon qilinuvchini, ayblanuvchi uchun	6 SOAT
• Voyaga yetmagan guvoh yoki jabrlanuvchi uchun	4 SOAT

Voyaga yetmagan ayblanuvchiga nisbatan qo'llaniladigan ehtiyot choralari Jinoyat protsessual Kodeksining 236-moddasida nazarda tutilgan asoslar bo'lgan taqdirda ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olish voyaga yetmagan shaxsga nisbatan faqat unga besh yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish tayinlanishi mumkin bo'lgan qasddan jinoyat sodir etganlikda ayb e'lon qilingan hamda ayblanuvchining munosib xulq-atvorda bo'lishini boshqa ehtiyot choralari ta'minlay olmaydigan taqdirda qo'llanilishi mumkin.

8-sinf davlat va huquq asoslari (2019-yilgi nashr), 162-bet.

558-modda. Voyaga yetmagan ayblanuvchini qamoqqa olish yoki uy qamog'iya joylashtirish

Ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olish yoki uy qamog'i voyaga yetmagan shaxsga nisbatan faqat ushbu Kodeksning 236-moddasida nazarda tutilgan **asoslar** bo'lganda (1) va unga **besh yildan ortiq** muddatga ozodlikdan mahrum qilish tayinlanishi mumkin bo'lgan qasddan jinoyat sodir etganlikda ayb e'lon qilingan (3) hamda ayblanuvchining munosib xulq-atvorda bo'lishini **boshqa ehtiyot choralari ta'minlay** olmaydigan taqdirda (3) qo'llanilishi mumkin.

Voyaga yetmagan shaxsga nisbatan qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasi qo'llash to'g'risida iltimosnama qo'zg'atish haqidagi masalani ko'rib chiqishda prokuror ish materiallari bilan shaxsan tanishib chiqishi, iltimosnomaning asosliligini tekshirishi, hodisaning favquloddaligiga ishonch hosil qilishi va ayblanuvchini ushbu ehtiyot chorasi qo'llash bilan bog'liq holatlar bo'yicha so'roq qilishi shart.

Ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olish qo'llanilgan voyaga yetmagan shaxslar katta yoshdagilardan, shuningdek voyaga yetmagan mahkumlardan alohida saqlanishi lozim.

Avvalo, ehtiyot chorasi nimaligini bilib olish kerak?

Xalqimizda ham bir gap borku, "ehtiyotini qilib qo'ygin", deyishadi. Ya'ni biron noxush vaziyatlar, salbiy oqibatlarni oldini olish uchun oldindan chora-tadbirini ko'rib qo'yish kerak. Jinoyat protsessida ham ayblanayotgan shaxslarni tergov yoki sud ishiga aralashishini, haqiqatni aniqlashga to'sqinlik qilishini oldini olish uchun ehtiyot chorasi qo'llanilishi mumkin. Masalan, uy qamog'i, qamoq, munosib xulq-atvorda bo'lish to'g'risidagi tilxat, garov kabi. Quyida batafsilroq tushuntiraman.

Jinoiy qilmish sodir etilgani haqida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar keldi. Shunda mazkur ishga aloqador shaxslar jinoyat prosessiga jalg etiladi.

Deylik, guman qilinuvchi yoki ayblanuvchi tariqasida. Endi shaxsning ishga qaysi maqomda jalg qilingani va yuz bergan jinoiy qilmishning og'ir-yengilligidan kelib chiqib, ularga nisbatan prosessual majburlov chorasi tayinlanishiga ehtiyoj tug'iladi (ehtiyyot chorasi shular jumlasidandir). Sababi shuki, agar majburlov chorasi belgilanmasa, jinoyat ishida kim aybdor ekanligini topish qiyinlashadi. Haqiqatlarni aniqlashga to'sqinlik qilinishi mumkin. Jinoiy harakatlar davom etaverishi ehtimoli bo'ladi. Shu sababli qonun garov, qamoq, uy qamog'i va boshqa ehtiyyot choralarini belgilashga ruxsat bergen.

Ehtiyyot chorasi tayinlangan shaxs jinoyatchi degani emas. Mutlaqo aybsiz bo'lishi ham mumkin. Zero, shaxsning aybi sud hukmi bilan o'z tasdig'ini topmagunicha u aybsiz maqomda bo'ladi.

Ehtiyyot chorasi jinoiy jazo emas. Jazo ayb tasdiqlangan sud tomonidan qo'llaniladigan chora. Adashtirmang.

Batafsil **hudud24.uz** nashrida chiqargan ushbu maqolamni orqali bilib oling:
<https://hudud24.uz/news/farki-bor-ozodlikni-cheoklash-kamok-ozodlikdan-makhrum-kilish-uj-kamogi-shartli-khukm>

ENDI: voyaga yetmagan shaxsga qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyyot chorasi qo'llanilishi uchun:

- 1) JPK 236-moddasidagi asoslar bo'lishi kerak;
- 2) besh yildan ortiq muddatga OMQ jazosi bo'lgan qilmish sodir qilganlikda ayblanayotgan bo'lishi;
- 3) boshqa ehtiyyot chorasi bilan ayblanuvchi xulqini to'g'rilab bo'lmasligi kerak.

555-modda. Voyaga yetmagan ayblanuvchiga nisbatan ehtiyyot choralar

Ushbu Kodeksning 236-moddasida nazarda tutilgan asoslar bo'lgan taqdirda voyaga yetmagan ayblanuvchiga ushbu Kodeksning 237-moddasida nazarda tutilgan ehtiyyot choralaridan birini qo'llash mumkin. Voyaga yetmagan shaxs ota-onasining, homiyalar, vasiylarning qaroviga yoki, basharti u bolalar muassasasida tarbiyalanayotgan bo'lsa, shu muassasa rahbarlarining qaroviga ham berilishi mumkin.

Voyaga yetmagan ayblanuvchiga nisbatan ehtiyyot choralar qo'llanilgani to'g'risida uning qonuniy vakiliga, agar bunday vakil bo'lmasa, boshqa qarindoshlariga xabar qilinadi.

XUDDI SHUNDAY “SHEDEVR”
QO’LLANMALARNI [@IDEALHUQUQ](#)
KANALIDAN VA BIZNING ONLAYN
DARSLARIMIZDAN TOPISHINGIZ
MUMKIN.

HA AYTGANCHA, QO’LLANMA
SIFATI BILA TANISHDINGIZ,
ENDI ONLAYN DARSLARIMIZ
QANDAY BO’LISHINI
TASAVVUR QILAVERING!

NE'MATULLO ZAMONOV – yurist, repetitor.

99 304 47 01 | [@N3MATULLO](#)
ONLAYN DARSLARIMIZ MAVJUD.